

SUN'YIY INTELLEKTNING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI

**Erkinova Zarina**Termiz iqtisodiyot va servis
universtitetiningFilologiya va tillarni o'qitish(ingliz tili)
ta'lism yo'naliishi 2-bosqich talabasi**Turabova Sevara Kattaqulovna**Falsafa fanlar bo'yicha falsafadoktori(PhD)
Termiz iqtisodiyot va servis universtiteti
“ Ijtimoiy-gumanitar fanlar “kafedrasidotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellektning o'qitish va o'rghanish metodikasiga ta'siri, uning afzalliliklari va kamchiliklari, yangicha usullar va kelajak istiqbollari batafsil ilmiy ma'lumotlarga assolangan holda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, texnologiya, avtomatlshirilgan, kognitiv qobiliyat, virtual, interaktiv, kiber hujum, ta'lim sifati, ilmiy tadqiqot.

The role artificial intelligence in the education system

Abstract: This article analyzes in detail the impact of artificial intelligence on teaching and learning methodologies, its advantages and disadvantages, innovative approaches, and future prospects, based on scientific data.

Keywords: artificial intelligence, technology, automated, cognitive ability, virtual, interactive, immersive, cyber attack, education quality, scientific research.

Роль искусственного интеллекта в системе образования

Аннотатсия: В данной статье подробно анализируется влияние искусственного интеллекта на методики преподавания и обучения, его преимущества и недостатки, инновационные подходы и перспективы на будущее, на основе тщательных научных данных.

Ключевые слова: искусственный интеллект, технология, автоматизированный, когнитивные способности, виртуальный, интерактивный, иммерсивный, кибератака, качество образования, научное исследование.

Kirish. Bugunga kelib ta’lim sohalarida sun’iy intellektdan foydalanish odatiy holga aylanib bormoqda. XXI asrda texnologiyalarning tezkor rivojlanishi, sun’iy intellektning hayotimizning barcha jabhalariga kirib kelishiga sabab bo’ldi. Bizga ma’lumki, sun’iy intellekt nafqat ta’lim yo’nalishlarida balki maktab va maktabgacha ta’lim sohalarida o’z o’rnini topib , ma’lumotlarni yoshlarga besh karra tezroq o’rgatish va o’qitish uslublariga sezilarli darajada ta’sir ko’rsatmoqda.Sun’iy intellekt tillarni o’qitish va o’rganishda kata imkoniyatlar eshigini ochdi. U shaxsiy o’rganish, avtomatshtirilgan baholash, interaktiv vositalar va boshqa ko’plab afzalliklarni taqdim etadi. Aslida , sun’iy intellekt nima? Sun’iy intellekt-bu inson aqliga xos bo’lgan kognitiv qobilyatlarni , masala, o’rganish, muammolarni yechish, qaror qabul qilish va fikrlash kabilarni kompyuter tizimlariga singdirishga qaratilgan texnologiya hisoblanadi. Sun’iy intellekt- informatikaning alohida sohasi bo’lib, odatda inson ongi bilan bog’liq imkoniyatlar: tilni tushunish , o’rgatish, masalani yechish , tarjima va har qanday savollarga javob berish imkoniyatlariga ega tizimlarni yaratish bilan shug’ullanadi.

Adabiyotlar tahlili. Sun’iy intellekt bu kompyuter tizimlarining inson aqlini taqlid qilish qobilyati. Sun’iy intellekt tizimlari, insonlar kabi muammolarni hal qilish yoki vazifalarni bajarish uchun algoritmlar va matematik modellar yordamida ishlab chiqiladi. Sun’iy intellekt ta’lim tizimida eng muhim texnologik yangiliklardan biri

hisoblanadi. U o'quv jarayonlarini yanada samarali, shaxsiylashtirilgan va interaktiv qilish imkonini berdi. Hozirda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lif sohasiga kirib kelishi faqatgina ta'lif sifatini oshiribgina qolmay, uning barcha uchun teng va ommabop bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ilmiy faktlarga ko'ra, sun'iy intellektga 1956-yilda mustaqil fan sifatida asos solingani, bundan tashqari o'sha yilda "sun'iy intellekt" atamsini John McCarthy Dartmouth kollejidagi anjumanda ilk marta qo'llagan. 1990-yillarda sun'iy intellekt taraqqiyotida yangi sahifa ochildi. 1997-yilda Deep Blue nomli IBM kompyuteri shaxmat bo'yicha jahon championi Garri Kasparovni yenggan tarixdagi ilk kompyuter bo'ldi. Sun'iy intellekt sohasidagi ilmiy tadqiqot va ta'lif sohalarida Amerika Qo'shma Shtatlari va Xitoy yetakchilik qilayotgani aytilmoqda. Bu texnologiya yanada takomillashishi va kelajakda bundanda ko'proq yutuqlarga erishishi uchun dunyo mamlakatlarining yetakchi olim va malakali ilmiy mutaxassislari jalg qilinmoqda. Bular jumlasiga rus olimlaridan A.Bazaeva, A.Lobanov, M.Axmetov tomonidan sun'iy intellekt tizimi borasida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borishgan. Nafaqat dunyo mamlakatlari shuningdek, O'zbekiston ham bu borada ortda qolgani yo'q. M.Kamilov, T.Bekmurotov, N.Ignatev tomonidan sun'iy intellekt ustida turli tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Sun'iy intellektning til o'qitish metodikasiga ta'siri: sun'iy intellekt algoritmlari talaba va o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini va o'rghanish tezligini tahlil qilib, ularga moslashtirilgan o'quv materiallari va vazifalarni taqdim eta oladi. Sun'iy intellekt yordamida matnlarni, insholarni va shuningdek, nutqni baholash jarayonlari avtomatshtirildi. Bu o'quvchilarning vaqtini tejashga va talabalarga tezkoelik bilan qayta aloqa berishga imkon beradi. Sun'iy intellekt ga asoslangan maxsus chastotalar talabalarga istalgan vaqtida va istalgan joyda ingliz tilida muloqot qilish, mashq qilish va yordam olish imkonini beradi. Qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, nafaqat muloqot qilish balki, ingliz tilida so'zlashishdagi kamchiliklarni tahlil qilib, xatolarini

aniqlash, talaffuzni to'g'irlash va so'z boyligini oshirishga yordam berishi mumkin. Yoki real vaqtda tarjima qilish imkoniyatini ham sun'iy intellekt bera oladi.

So'nggi statistikaga ko'ra, Sun'iy intellekt bir qancha qiyin bo'lgan vazifalarni osonlashtirgan holda bir qancha qulayliklarni yaratdi. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari tillarni o'rghanishni yanada immersive va interaktiv qilishi mumkin, rolli o'yinlarni o'ynash va madaniy tajribaga ega bo'lishlari mumkin. Sun'iy intellekt ta'lim jarayonini individuallshtirdi bunda: individual ehtiyojlar, shaxsiylashtirilgan o'qitish va yaxshi natijalarni yaratdi.

Talabalar hozirda foydalanayotgan Sun'iy intellekt turlari quyidagicha deb belgilangan:

- Chatbots- talabalarga tez va samarali javoblar berish uchun mo'ljallangan.
- Virtual asistentlar- o'quv jarayonini boshqarish, topshiriqni rejulashtirish va eslatmalarni taqdim etishda yordam beradi.

Muhokama. Sun'iy intellekt masofaviy ta'limni rivojlantirishda katta imkoniyat yaratdi. O'quvchilarga vaqt va joyga bog'liq bo'limgan holda o'qish imkonini beradi. O'quvchilarga dunyoning istalgan o'qituvchi va resurslarga kirish imkonini berdi.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'lum bo'lishicha, sun'iy intellektning ayrim salbiy oqibatlari paydo bo'lganligi haqida eshitdim. Bunga misol qilib, Sun'iy intellekt yordamida o'rghanish jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasida shaxsiy aloqa yetishmasligi mumkin, bu esa o'rganuvchining motivatsiyasiga ta'sir qilishi mumkin. Sun'iy intellekt vositalarida foydalanuvchilarining ma'lumotlari saqlanishi va qayta ishlanishi bilan bog'liq xavotirlar mavjud. Eng katta kamchiliklaridan biri, nutqni tahlil qilishda va tarjima qilishda ba'zan xatolarga yo'l qo'yishi mumkin buning oqibatida o'rganuvchi chalg'ishi ehtimoli katta. Ta'im sohasida talabalar ma'klumotini himoya qilishi muhimdir.

qilishi mumkin. Sun'iy intellekt vositalarida foydalanuvchilarining ma'lumotlari saqlanishi va qayta ishlanishi bilan bog'liq xavotirlar mavjud. Eng katta kamchiliklaridan biri, nutqni tahlil qilishda va tarjima qilishda ba'zan xatolarga yo'l qo'yishi mumkin buning oqibatida o'rganuvchi chalg'ishi ehtimoli katta. Ta'im sohasida talabalar ma'klumotini himoya qilishi muhimdir.

Keying 10 yil ichida sun'iy intellekt quyidagi imkoniyatlarni taqdim etishi kutilgan:

1. Ish o'rınlarini yangilash- sun'iy intellekt jarayonlarini avtomatshtirilishi va ish samaradorligini oshirishi mumkin, bu yangi ish turlar va imkoniyatlarini yaratadi.
2. Tibbiyotda sun'iy intellekt yordamida kasalliklarni erta aniqlash , individual davolash rejalarini ishlab chiqish va yangi dori vositalarini sinovdan o'tkazish jarayonini tezlashtiradi.
3. O'z-o'zidan harakatlanuvchi transport vositalari va tovarlarni taqsimlash bo'yicha sun'iy intellekt tizimlari yangi samara ham berishi mumkin.

Sun'iy intellekt o'z kamchiliklari va xavfli tomonlarini ko'rsatmay qo'ymadni.

Bu borada taqdiqotlar olib borilib, quyidagi kamchiliklar aniqlandi: avtomatlashtirish ko'plab oddiy ishlarni qilishi mumkin.Sun'iy intellekt kuchli vositalari sifatida qurilmalarni ishlatib, xakerlik va kiber hujumlar uchun imkoniyatlarini yaratish mumkin. Sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan tizimlar noto'g'ri axborotlarni tarqatishi va bu salbiy natijalarga olib kelishi mumkin, bu esa ijtimoiy va siyosiy oqibatlar tug'dirishi mumkin.

Xulosa. Sun'iy intellekt ta'lismiga sezilarli ta'sir ko'rsatish salohiyatiga ega bo'lib, o'qitish va o'rganish uslublarini tubdan o'zgartirishga qodir. Sun'iy intellekt imkoniyati cheklangan talabalarga moslashtirilgan o'quv materiallari va texnologiyalari taqdim etishi mumkin. Shuningdek, sun'iy intellekt qishloq joylardagi va kam ta'minlangan oilalardagi talabalar uchun ham yanada qulay qilishi mumkin. Sun'iy intellekt yordamida to'plangan ma'lumotlar ta'lim siyosatini va amaliyotini takomillashtirish uchun foydalanishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI(REFERENCES)

1. Russell,S. J.&Norvig.P(2010).Artificial Intelligence:A Modern Approach.Pretince Hall(sun'iy intellektga oid asosiy darslik)

2. Holmes.W, Bialik.M& Fadel.C(2019).Artificial Intelligence in Education.Boston:Center for Curriculum Redesign.(SI ning ta’lim sohasidagi roli)
3. UNESKO(2019). Artificial intelligence in education:Challenges and opportunities for sustainable development.(Birlashgan Millatlar Tashkiloti hisoboti)

/